




KICHIK HAJMLI RISOLA

# DO‘STINGA MAKTUB

SHAMSUDDIN SADRUDDIN



«Ularni bitta qabrga qo‘yinglar. Chunki ular dunyoda  
yaqin do‘st edilar».

2022

Bularni yozayotgan inson do'stlik haqida gapirishga yetarli tajribaga ega emas. U do'stlari tomonidan qilingan xiyonatga uchrab yillarcha siqilgan, keyin sodiq do'st topib birodarlik lazzatini qaytadan totgan inson ham emas. Shu sabab hozirda o'qiydiganlaringiz iboralar sizga, hatto vaqt o'tishi bilan uning o'ziga ham erish tuyilishi mumkin. To'g'risi, uning hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan do'sti yo'q. Ammo «ne'mat» deyishga loyiq birodarlari bor. Alloh tomonidan berilgan ne mat! Har qaraganda ko'zlarini quvontiradigan, suhbatidan qalbi taskin topadigan, yo'liqqach ishtiyoqqa to'ladigan, oldida yosh bolaga aylana oladigan ne'mat. U mana shu ne matlar uchun Allohga shukr o'laroq bularni yozmoqda...

## Assalomu alaykum va rohmatalloh!

Tug'ishganlardan qadri baland bo'lgan birodarim, salomatmisan? Qiyomatim qoim bo'lmasidan oldin aytib qo'yay, men seni Alloh uchun yaxshi ko'raman! Seni menga uchratgan Zotga hamdlar aytaman! Barchasi uchun senga minnatdorchilik bildiraman! Alloh seni yaxshilik bilan mukofotlasin, meni ko'p bora xayrli ishlarga dalolat qilding! Ey do'stim, men mahshargohda sen bilan yonma-yon nabiyilar, siddiqlar, shahidlar va solih bandalar qatorida tirilishni istayman! Hech bir soya yo'q kunda sen bilan birga Allohning Arshi soyasida turishni xohlayman! Allohdan ikkimizni jannatda qo'shni qilishini so'rayman! Vallohi, ba'zan xayollarimga erk berib jannatda birgalikda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ziyoratlariga borayotganimizni, sen u zotning o'ng tomonlarida, men esa chap taraflarida o'tirib, u kishi bilan suhbatlashayotganimizni tasavvur qilaman. Go'yo Rasululloh bizni ansor va muhojirlarni birodar tutintirganlaridek jannatda qaytadan birodar qilib qo'ymoqdalar...

Ammo... Ammo bu shirin onga erishish uchun nima qilish kerak? Faqat do'st bo'lishning o'zi yetarlimi?

Uhud kuni Nabiy sollallohu alayhi vasallamning oldilariga Abdulloh ibn Amr ibn Harom va Amr ibn Jamuhlar qatl qilingan holda olib kelindi. Shunda u zot aytdilar: «**Ularni bitta qabrga qo'yinglar. Chunki ular dunyoda yaqin do'st edilar**». Biz ikkimiz ham mana shunday do'stlar bo'lishimiz uchun nima qilishimiz kerak?! Biz o'zi yaqin do'stlarmizmi?!

Har do'stlikning bir asosi bo'ladi. Do'stlar shu asos atrofida birlashadilar. Asos qulagan payti ularning o'rtalaridagi do'stlik ham yo'qqa chiqadi. Masalan, do'stligi tijorat ustiga qurilgan insonlar tijorat yo'q bo'lishi bilan tarqalib ketadilar. Shu sabab ularga «do'stlar» emas «sheriklar» deyiladi. Biz sen bilan do'stmizmi yoki sherik?! Biz qurgan do'stlikning asosi nima?! Boshqacharoq aytsam, biz sen bilan ko'proq nimaning ustida uchrashamiz - tijorat, o'qish, futbol, taom yo o'yin-kulgi?!

«Albatta, iymon!» - ikkimiz ham mana shunday javob berishni juda qattiq istaymiz, to'g'rimi?! Ammo bu javobning yuki og'ir. Bunday javob til bilan

aytilmaydi. U yurak urishining har zarbida yangraydi va uni faqat haqiqiy do'stlar eshitadi.

Sen bir kuni anchadan beri gaplashmayotganimizdan norozi ohangda so'z ochding. Senga Imom Ahmadning quyidagi gaplarini eslataman: **«Mening yilda bir marta uchrashadigan birodarlarim bor. Har kuni ko'rishadigan kishilarimdan ko'ra ularning muhabbatiga ko'proq ishonaman».**

Birodarlik, do'stim, har kuni ko'rishib, gaplashib o'tirish emas. Birodarlik - ikki insonning dunyoning boshqa-boshqa tomonlarida turib ham va'da qilingan abadiy suhbat uchun intila olishi.

Aziz do'stim, mo'min mo'minning birodari ekani senga kundek ravshan. Nasihat so'raganda nasihat qilish esa musulmonning musulmon zimmasidagi haqqidir. Men ushbu maktub orqali mana shu haqni ado etmoqchiman. Maktublarda o'qiydiganing «sen» bilan «men»ni odamlar tushunadigan odatdagi ma'noga ko'ra ajratma. Ular biz uchun bitta ma'no va bitta shaxsni anglatuvchi ikki so'z xolos.

\*\*\*

## Qadrli do'stim!

Bilki, maktubida senga «do'stim» deb murojaat qilgan har kim do'sting bo'lavermaydi. Ayniqsa, maktub so'nggidagi «samimiyat bilan» degan iborani rasmiyatchilik uchun yozish urf bo'lgan bu zamonda.

Do'stlikning asosi so'z yoki amal emas. Bular natija va turtki sifatida muhim, albatta. Ammo uning barcha asoslari va mohiyati qalbdadir. Bir masjidida, bitta safda, bir imom ortida millionta qadam bir xil turmaydimi, modomiki, qalblari bir safda emas ekan, ularning sahnadagi artistlardan farqi nima?!

Sen rostdan ham chin do'st ekanimizga ishonasanmi? Mening yuragim daqiqasiga 80, seniki 100 marta urib turgan bo'lsa ham-a?! Aytaylik, bugun men hech qanday muammoga duch kelmadim, shu bois xotirjamman, yurak urishim maromida. Sen esa, mashinangni urib olganing uchun asabiylashyapsan, yuraging tez uryapti. Agar biz do'stlar bo'lsak, yo men ham senga qo'shilib hayajonlanishim, natijada yurak urishim tezlashishi, yo senga nasihat qilib seni tinchlantirishim, natijada yurak urishing menikidek me'yorlashishi kerak emasmi?!

Do'stlik, ey birodarim, ota-onalar boshqa-boshqa bo'lsa ham aka-uka tutina olishdir!

Do'stlik - ikkita, uchta, to'rtta... tananing bir butunga aylanishi, agar sening uchta chin do'sting bo'lsa, demak ikkita emas, sakkizta oyog'ing bor bo'lishidir!

Do'stlik - u qiynalgan kunni «Mahzunlik kuni» sifatida qalb tarixingga muhrlashingdir!

Do'stlik - sirlar ochiladigan kunda bir-biridan qochmaydigan bo'lib bu hayotda yashash demakdir!

Do'stlik - bugun shu yerda yig'ilgan beshta do'st sonining ertaga jannatda to'rtta yoki uchta bo'lib qolmasligidir!

\*\*\*

**«Albatta, biz Allohnikimiz va albatta, Unga qaytguvchimiz!»**

**«Go‘yo osmon yerga qoplangan-u, men u ikkisining orasidaman. Xuddi Radva tog‘i ustimda turgandek, ichimda bir tikan bordek, nafasim ignaning orasidan chiqayotgandek o‘zimni his qilyapman...»**

Do‘stim, bu buyuk sahobiy Amr ibn Oss roziyallohu anhuning o‘lim vaqti aytgan gaplari. Sen bu dunyodan ketish lahzang haqida hech o‘ylab ko‘rganmisan?!

Hozir sen bilan bir tuproqdamiz. Oxiratda ham eng a‘lo maskanda birga jamlanishga umid qilamiz. Ammo hali shunday onlar keladiki, sen bir yerda, men esa o‘zga yerda bir-birimizdan ayro qiyomatga qadar yolg‘iz qolamiz. Shular haqida hech tafakkur qilganmisan!? Agar fikr yuritgan bo‘lsang, demak, tushunibsan: sen bilan mening oramizda yana uchinchi «do‘st» bor! Bizlar ayrilgan taqdirda ham har ikkimizdan ayrilmaydigan «do‘st»!

Ana o‘sha Zot bizga qarata aytadi:

**«Ey iymon keltirganlar! Allohga haqiqiy taqvo ila taqvo qiling. Va faqat musulmon holingizdagina bu dunyodan o‘ting».**<sup>1</sup>

Ey do‘stim, onadan yangi tug‘ilgan chaqaloqdek asl «do‘st» huzuriga ketishdan bizni nima to‘sib turibdi!?

Oisha onamiz: «Ey Allohning Rasuli, men uchun Allohga duo qiling», dedilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam duo qildilar: **«Ey Alloh, Oishaning avvalgi-yu oxirgi, pinhona-yu oshkora gunohlarini mag‘firat qil»**. Oisha onamiz kuldilar. Hatto kulgudan boshlari etaklariga egilib qoldi. U zot unga: **«Duoyim seni xursand qilmayaptimi?»** dedilar. Oisha onamiz aytdilar: «Yo‘g‘e, duoyingiz meni xursand qilyapti». Shunda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: **«Allohga qasam, albatta, u har namozda ummatim uchun qiladigan duoyimdir»**, dedilar<sup>2</sup>.

Bas, do‘stim, **«Va jannatimga kir!»** buyrug‘igacha ikkimizga ham tinim yo‘q!

\*\*\*

<sup>1</sup> Oli Imron surasi, 102-oyat.

<sup>2</sup> «Sahi:hu Ibn Hibba:n», 7111.

## Najotga shoshil!

Do'stim, namozda mahkam bo'l! Bizlarni mavlomiz bilan bog'lab turuvchi bu arqonni aslo uzma! Muazzin «najotga shoshilinglar» deganda juda to'g'ri aytadi. Namoz - boya so'z yuritganimiz yolg'izlikdan najot. Namoz - do'zaxdan najot. Namoz - g'am, qayg'u, musibat va gunoh deb atalmish zulmatdan najot. Najotga birdek shoshilmoq esa do'stlik shartlaridandir.

Ibn Sino aytadi: «**Ikki rakat namoz o'qib tarkibini aniqlagan dorilarim ko'p bo'ldi**». Buyuklarning buyuklik siri - namoz! Bundan boshqa buyuklar sen o'ylagandek buyuk emaslar.

Ey do'stim, namozni jamoat bilan o'qishni fazilat deb emas, majburiyat deb bil! Zero ahli solih kishilar namozning birinchi takbirini o'tkazib yuborishsa uch kun, jamoatdan qolib ketishsa yetti kun o'zlarini koyirdilar. Ular: «**Kishi faqat qilgan gunohi tufayligina jamoat namozini o'tkazib yuboradi**», der edilar.

Adiy ibn Hotam aytadi: «**Musulmon bo'lganimdan beri namozga takbir aytilgan paytda tahoratli bo'ldim. Birorta namoz vaqtining kirishi yo'qki, men uni sog'inmagan bo'lsam**».

Omir ibn Abdulloh ibn Zubayr rohimahulloh o'lim to'shagida yotar ekan muazzinning azonini eshitdi. Shunda atrofida qilargalarga: «**Qo'limdan tutib meni masjidga olib boringlar!**» dedi. Ular: «Axir siz bemorsiz-ku», deyishgan edi, Omir: «**Allohning chaqiruvchisini eshitib, unga ijobat qilmaymanmi?!**» dedi. Qo'lidan tutib masjidga olib bordilar. U imom bilan namozga kirdi. Bir rakat o'qidi-yu, olamdan o'tdi.

\*\*\*

## Hudhuddek bo'!

Bu nasihat avvalo o'zim, so'ngra sen uchun.

Azoblanishi yoxud so'yib yuborilishi hukmdor tomonidan ogohlantirilganiga qaramay, Sulaymon alayhissalomning huzuriga kirib, qo'rqmasdan: «**Men sen bilmagan narsani bildim**»<sup>3</sup> degan Hudhuddek jasur va ilmli bo'!

Hudhudni hukmdorlardan behojat qilib, asl Hukmdorgagina muhtoj qilgan ilm senda ham bo'lsin! Hudhudni halokatdan qutqarib, uni yanada aziz qilgan ilm senda ham bo'lsinki, u sabab oxiratdagi ulkan halokatdan omon qol!

Hech bo'lmaganda mana shu ilmni izlab «parvoz et». Sababni qil va natijani Allohga topshir. Bunda ham qush kabi bo'!

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «**Agar sizlar Allohga haqiqiy tavakkul qilganingizda, U zot qorni och ketib, qorni to'q bo'lib qaytib keladigan qushni rizqlantirganidek sizlarni ham rizqlantirib qo'yar edi**».<sup>4</sup>

Ilmdan kattaroq rizq bor ekanmi!? Yuragingni qushning yuragidek keng qilginda, so'ngra qanot qoq!

Zero: «**Jannatga qalblari qushning qalbi singari bo'lgan qavmlar kiradi**».<sup>5</sup>

Munoviy ushbu hadis sharhida shunday deydi: «**(Ular) tavakkul borasida qushning qalbi kabi (bo'lganlardir). U tongda qorni bo'sh ketib, kechga yaqin to'q qaytib keladi**».

Ey do'stim, odamlar holiga achinib: «**Allohga sajda qilmaydilar mi?!**»<sup>6</sup> degan Hudhuddek bo'! Chunki u o'zi tanigan Robbisini boshqalarning ham tanishini istar, bu yo'lda ter to'kar va toifa ajratmasdi.

\*\*\*

---

<sup>3</sup> Naml surasi, 22-oyat.

<sup>4</sup> Termiziy:2344.

<sup>5</sup> Muslim:2840.

<sup>6</sup> Naml surasi. 25-oyat.



## **Qur'onsiz o'tkazgan har kuning sening zararingadir!**

Tobe'in Abu Oliyay aytadi: **«Biz bir kishining Qur'on o'rganib, so'ng undan hech narsa o'qimay uxlashini katta gunohlardan deb bilar edik».**

Ey do'stim, har kecha Qur'ondan o'zing uchun vazifa tayinlab ol! Zero bir mo'minning Qur'on tilovatidan uzilish zarari ekstremistning mus'hafni yoqib yuborish zararidan ko'ra kattaroq va xavfliroq.

Uyda o'qilmaganidan chang bosib ketgan mus'haf bilan yoqib yuborilgan mus'hafning nima farqi bor?!

**«Biz Qur'onni yo'qolib ketishidan qo'rqmaymiz. Zero Alloh uni himoya qilishga O'zi kafil bo'lgan. Biz musulmonlarning uning tilovatidan yuz o'girishlari, Qur'on o'z ichiga olgan usul, haqiqat va odoblarni bilmasliklaridan qo'rqamiz».** (Muhammad Xizr Husayn rohimahulloh)

Aql ko'zi ila holatingga boq! Sen soatlab insonlar bilan so'zlashasan va charchamaysan. Ularning Xoliqi bilan «so'zlashish»ga kelganda esa uzr qidirasanmi?! Unutmaki, hech bir muhib yorining so'zidan malollanmaydi.

Muhimi, do'stim, sen Qur'onni qancha xatm qilganingga emas, qanchasiga tushunganingga e'tibor qarat! Ibn Qayyim rohimahulloh aytadi: **«Qur'onni tadabbur qiluvchi qalbining shifosida muhtoj bo'lib turgan bir oyat oldidan o'tsa, uni yuz marta bo'lsa ham, butun kecha bo'lsa ham takrorlab chiqadi. Zero bir oyatni tafakkur qilgan va anglagan holda o'qish Qur'onni tadabbursiz va anglamay o'qigandan yaxshiroq, qalb uchun manfaatliroq hamda (komil) iymon hosil bo'lishida va Qur'on halovatidan zavqlanishda samarasi kattaroqdir».**

\*\*\*

## Ujbdan ehtiyot bo'!

Muhammad ibn Vose' solih birodarlarini eslab: «E-voh, do'stlarim-a! Do'stlarim ketdi», dedi. Unga: «Alloh sizga rahm qilsin! Axir Qur'on o'qiydigan, kechalari qoim bo'ladigan, kunduzlari ro'za tutadigan va haj qiladigan yoshlar ulg'aymadimi!?» deyishdi. Shunda u tupurib: «Ularni ujb buzdi», dedi...

Ujb - kishining nafsini kamolga yetganini xayol qilib quvonishi va amallaridan ajablanishi. Masalan, soqol qo'yib bor sunnatni o'zimda jamladim deb o'ylashi, qiroat qilganda o'ziga-o'zi qoyil qolishi va hokazo.

Ujb - koronavirusdan ancha oldin paydo bo'lgan og'ir asoratlarga ega o'ta xavfli kasallik. Yuqish bo'yicha bugungi virusni ham ortda qoldiradi. Hozirda barcha ushbu kasallikka chalingan.

Ayniqsa, do'stim, u sen va men kabi yoshlarda og'ir kechadi. Sababi ular bu kasallikni o'zlarida yo'q deb o'ylab uni davolashga urinmaydilar. Eng yomoni bu kasallikni bemorning o'zidan boshqa hech kim aniqlay olmaydi.

Hozircha qancha odam bu kasallik qurboni bo'lgani noma'lum.

Ey do'stim, bu dunyoda hech bir dard yo'qki uning davosi bo'lmasa. Ujbning bir necha davolari bor. Shulardan muhimini aytaman: aslingga nazar sol! Sen va men o'zi kimmiz, bilasanmi?! Buni Molik ibn Dinordan eshit:

«Bir kuni Muhallab (u amirlardan edi) Molik ibn Dinorning oldidan viqor bilan o'tdi. Molik: «Axir bilmaysanmi, Alloh bu yurishni (jang paytidagi) ikki saf orasidan boshqasida yomon ko'radi?!» dedi. Muhallab Molikka: «Sen meni tanimaysanmi?» dedi. Molik ibn Dinor: «**Ha! Sen - avvaling badbo'y nutfa, oxiring iflos o'limtiksan, bu ikkisining orasida esa (ichingda) chiqindi ko'tarib yurasan**», dedi. Shunda Muhallab bo'shashib aytdi: «Endi meni haqiqatda taniding»<sup>7</sup>.

\*\*\*

---

<sup>7</sup> Imom Zahabiy. «Siyaru a'la: min nubala:».

## **Odamlarning xatolarini muhoka qilma! Ularga nisbatan bag'rikeng bo'!**

Ey do'stim, ayni ujb sababli vujudga keluvchi yana bir illat kishining o'z gunohlaridan g'aflatda qolib odamlarning gunohlari bilan o'ralashib qolishidir.

Aliy roziyallohu anhu aytadilar: «**Xatosini unutgan boshqaning xatosini katta sanaydi**».

Sen also odamlar ustidan hukm chiqaruvchi emassan. Ehtimol, zohiriga qarab yomon deb o'ylayotganing kimsa sendan ko'ra Allohning huzurida oliy maqomdadir.

Bir tasavvur qil-a, tog'dek gunohlari odamlar nigohidan yashirilib, birgina solih amali ko'rsatib qo'yilgan kishining tog'dek solih amallari yashirilib, birgina xatosi ko'rsatib qo'yilgan kishi haqida: «Hoy odamlar, mana bu kishi fosiqdir», deyishi uchun inson naqadar pastkash bo'lish kerak. Alloh istaganini yashirib, istaganini oshkor etuvchi Zot! Bandalar esa mudom sinov ichidalar.

Ish shunday ekan, sen o'zing bilan ovora bo'! Bag'ringni keng qil!

Bilginki, namozda yoningdagi insonning sen bilan birga boshini yerga qo'yib Oliy Allohni nuqsonlardan pok ekanini e'tirof etishi yetarli - u sening dindosh birodaring. Unga tabassum bilan qara va fikrini hurmat qil! Duoyingda u va sen jannat so'rilarida birga o'tirishingizni so'ra.

Qiyomda qo'lini qayerga qo'yishi, ominni jahriy yo maxfiy aytishi, ishorai sabbobani qilish-qilmasligi, agar qilsa qanday ko'rinishda qilishi - bularning hech biri boya birgalikda qilgan sajdangiz o'rnini bosa olmaydi. U hamon sening birodaring va sizlar hanuz so'rilardasiz!

Ha, aytgancha, xatoni kuzatish bilan xatoni tuzatish orasida farq bor. Agar sen menda xato yo kamchilik ko'rsang meni ogohlantirishing iymoniy birodarlik shartlaridan biri ekanini unutma!

\*\*\*

## Odamlarning yomon gumonlari seni ranjitmasin!

Bir bolani eslaysanmi? Katta bo'lgach nasroniy ruhoniylari bilan yuzlab oshkora munozaralar o'tkazgan va birortasida ham yengilmagan bolani?!

U o'n minglab insonlarning Islomga kirishiga sabab bo'ldi.

Qaysi G'arb davlatiga bormasin, muxoliflari uning tashrifini eshitib doim hayiqishdi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sha'nlariga yomon so'z aytgan amerikalik yevangelist Jimmi Svaggert bilan bahslashdi va oxiri Jimmi Svaggert uzr so'radi.

U Vatikan papasini dunyo ko'z o'ngida munozara qilishga chaqirdi. Papa rozi bo'lmadi.

Uni turlicha atashadi: «Da'vat chavandozi», «Janubiy Afrika arsloni», «Bahschilar shayxi», «Bahslar faqihi», «Islomning ingliz hujjati»...

Senga esa u «Ahmad Diydot» nomi bilan tanish.

Bu kishi umrining so'nggi 9 yilini xasta holda to'shakda o'tkazdi. Ayyub alayhissalomga dard bergan Zotni tanimaganlar buni «unga berilgan jazo» deyishdi.

Do'stim, odamlar kamdan-kam holdagina to'g'ri baholay oladilar. Ularning gaplari seni ranjitmasin!

Sen tuhmatchilarga ayt: **«Alloh biladi, sizlar bilmaysizlar»**.<sup>8</sup>

\*\*\*

---

<sup>8</sup> Oli Imron surasi, 66-oyat.

## **Baxtni uzoqlardan qidirma!**

Valentin Borisovning: «**Baxt - bu bir stakan suv, lekin daryo bo'yida emas, sahroda**», degan gapi kishini o'ylashga undaydi. Demak, hozir hammamiz Islom «idish»idan boshqa «idish»larda suv qolmagan «sahro»damiz!

Sen va men yaqin do'st o'laroq baxtli bo'lishni istaymiz, to'g'rimi? Unda bizga namuna kerak. Ikkalamiz ham yaxshi bilamizki, payg'ambarlardan ko'ra saodatliroq inson zoti bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas.

- Qavmi tinimsiz xiyonat qilgan Muso alayhissalom - payg'ambar;
- Yillarcha to'shakda bemor bo'lib yotgan Ayyub alayhissalom - payg'ambar;
- Farzandlaridan biri yuz o'girgan Nuh alayhissalom - payg'ambar;
- Otasi toshbo'ron qilib quvgan Ibrohim alayhissalom - payg'ambar;
- Tug'ishganlari quduqqa tashlab ketgan Yusuf alayhissalom - payg'ambar;
- Olti farzandini tuproqqa qo'ygan Muhammad sollallohu alayhi vasallam - payg'ambar.

Baxt qorni to'q, sog'lom, puli bor, muammosiz va musibatlarga yo'liqmay yashash emas, do'stim! Agar shunday bo'lganida payg'ambarlardan ko'ra baxtsiz kishilar yer yuzida bo'lmasdi.

Baxt - bu Allohga iymon keltirib to'g'ri yo'ldan og'maslik!

(Sen uchun doim Allohdan mana shunday baxtni so'rayman)

Uch Abdullohning yoshlik davri haqida qurgan suhbatiga quloq tut:

**«Ibn Zubayr Ibn Ja farga: «Men, sen va Ibn Abbos Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga yo liqqanimizni eslaysanmi?» dedi. U (Ibn Ja'far) aytdi: «Ha, bizni ko'tarib seni qoldirgan edilar-a».**<sup>9</sup>

Qadrli do'stim, yigirma, o'ttiz, qirq yillar o'tsa ham beg'ubor o'tmishni birga eslay oladigan insonlarning yoningda bo'lishi baxt ustiga baxtdir!

\*\*\*

---

<sup>9</sup> Buxoriy va Muslim.

## Yaxshiliklar sen o'ylaganingdan ham ko'p.

Ey do'stim, birodaringga undan avval salom berishing - yaxshilik!

Yig'layotgan yosh bolani ovutib qo'yishing - yaxshilik!

Bo'lar-bo'lmasga mashina «signali»ni chalavermasliging - yaxshilik!

Xullas, vaziyatga qarab

- tabassum qilishing;

- yig'lashing;

- quvonishing;

- mahzun bo'lishing;

- maqtashing;

- dakki berishing;

- gapirishing;

- sukut saqlashing;

- yon bosishing;

- yuz o'girishing;

- «hop» deyishing;

- «yo'q» deyishing;

- tasdiqlashing;

- inkor etishing;

- kurashishing;

- taslim bo'lishing -

barchasi - YAXSHILIK!

Bir so'z bilan aytganda, do'stim: iymon taqazosiga ko'ra o'z o'rnida qilgan har qanday ishing YAXSHILIKdir.

\*\*\*

## O'zingda bor umidni boshqalarga ham ulash!

Ey do'stim, o'yin-kulgilarga muhtalo bo'lganlarning ko'pini qalb halovatini yo'qotganlar tashkil etadi. Ular o'yinlarini kundan-kun yanada zavqli va xatarli bo'lishini istashadi. Bugun kulgan hazillariga ertaga kula olmaydilar. Chunki nafslari bundan-da kulgilirog'ini xohlaydi. Natijada hazillariga uyatsiz so'zlarni qo'shadilar. Bema'nilashadilar.

Uyatsiz hazillardan to'ygach turli o'yinlarni o'ylab topadilar. Bugun zavqlangan o'yinlaridan ertaga zerikadilar. Natijada o'yinlariga zinoni qo'shadilar. Tubanlashadilar.

Kun kelib «o'yin» nomi ostiga yashirgan zinolaridan ham qoniqa olmaydilar. Odamlarning ustidan kuladilar, kamsitadilar. Bulardan ham zerikadilar.

Oxiri ularning badanlariga hech vaqo rohat bera olmaydi: na bir xamr va na biror fahsh. Shunda ularning dunyoda qilmagan ikki ishlari qoladi: o'lim va ibodat!

Ularga Allohning quyidagi va'dasini eslat:

**«Kim zulmidan keyin tavba etsa va amali solih qilsa, Alloh albatta tavbasini qabul qiladi. Shubhasiz, Alloh mag'firatli va rahmli Zotdir».**<sup>10</sup>

Ularga hali kech emasligini ayt!

Ularga Fuzayl ibn Iyozning qissasini aytib ber!

Ularga hazrati Umar 40 tacha kishidan keyin Islomga kirganlarini, bugun esa u kishining ismi Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va Abu Bakr Siddiqdan so'ng uchinchi bo'lib zikr qilinayotganini ayt! Aytki, ularda umid paydo bo'lsin, sen his qilgan narsani ular ham his qilsinlar!

\*\*\*

---

<sup>10</sup> Moida surasi, 19-oyat.

### Hayit tabrigi (1442-yil, 1-shavvol/2021-yil, 13-may)

Allohga hamd, Rasuliga salovatdan so'ng:

Qadrli do'stim, Alloh ikki juftni yaratdi. Birini erkak, boshqasini ayol qildi. Shijoat, g'ayrat, hamiyat, g'ayurlik va dag'allik sifatlarini erkakda zohir etdi. Nafosat hamda nozik qalbni ayolga xosladi. Keyin ikkisiidagi ushbu sifatlarni shariat bilan me'yorga soldi.

Biz erkakmiz! Qurbonlikka keltirilgan qo'yni ko'rib yig'lab yubormaymiz! Jangovor bo'la olish tabiatimizda bor. Yuragimizdagi rujulat sabab ba'zan otashdek yonamiz, yondiramiz.

G'azab ham qilamiz, bosiq ham bo'lamiz. Urushamiz, tinchamiz. Kechiramiz va kechirmaymiz. Barchasi o'z o'rni bilan.

Biz erkaklar jiddiy ishlarda jiddiy bo'lamiz. Jiddiy bo'lmaganlaridan chetlanamiz. Or-nomus va hamiyat jonimizdan qadrli.

Bularni hazm qila olmaydigan «bola»larga e'tibor bermaymiz, ularni o'yinchoqlari bilan yolg'iz qoldiramiz.

Hayo iymondan ekani bizdan istisno qilinmagan. Uni andisha yo iymanish deb tushunganlar aybni o'zlaridan qidirsinlar...

Ramazon hayiti muborak bo'lsin!

\*\*\*



## Hovliqma!

Eslasang kerak, Yusuf alayhissalom ajoyib bir tush ko'radilar. So'ngra uni otalari Ya'qub alayhissalomga aytadilar. U kishi esa: «**Ey o'g'ilcham, tushingni akalaringga aytmagin. Yana ular senga hiyla qilmasinlar. Albatta, shayton insonga ochiq-oydin dushmandir**»<sup>11</sup>, deb o'g'illariga nasihat qiladilar.

Mana shu oyat tafsirida Ibn Kasir rohimahulloh shunday deydi: «**Bundan ne'matni to yuzaga chiqib ko'rinmagunicha berkitish ko'rsatmasi olinadi**».

Do'stim, quvonchingni izhor qilishda e'tiborli bo'l va ish tamomiga yetmay turib suyunchi olma!

Bir do'stim aytgan edi: «Qachon bir kitobni o'qiyotganimni boshqalar eshitsa, oxirigacha o'qiy olmayman».

Taklif va so'rovlarga darrov «Ha» deb yuborma! Qanchadan-qancha «Ha»lar borki, ortidan afsusni olib kelmagan bo'lsa.

Takliflardagi «Ha» rozilik, so'rovlardagi «Ha» tasdiq alomatidir. Rozi bo'lgach ishni bajarishing, tasdiq qilgach oxirda javob berishingiz bor.

«Shundaymi, shunday emasmi?», «Mumkinmi, mumkin emasmi?» so'rovlariga «Ha» yoki «Yo'q» deb javob berishni yengil sanama. Taklif kiritilganda «Yo'q», savol so'ralganda esa «Bilmayman» deya olishni o'rgan. Pifagor aytganidek: «**Ha» yoki «yo'q» so'zlari juda qisqa bo'lsa ham, ular jiddiy fikrlashni talab qiladi**».

Shoshma, o'yla, ehtiyot bo'l!

\*\*\*

---

<sup>11</sup> Yusuf surasi, 5-oyat.

## **Tuningni zoe qilsang, kunduzingni ham yo'qotasan!**

Hijriy 15-yil sha'bon oyida 200 mingli fors qo'shini bilan 30 mingli musulmon qo'shini o'rtasida jang bo'lib o'tgan. Bu jang tarixda «Qodisiya ma'rakasi» nomi bilan mashhur. Forslar qo'shinida 33 ta fil ham bor edi. Bilasan, fil o'sha zamonning dahshatli jangovar hayvoni hisoblangan.

Qurbonlar soni: forslardan 40 ming, musulmonlardan 8,5 ming.

Jang natijasi: Musulmonlar zafar qozonib, forslar mag'lub bo'lgan.

Ey do'stim, muhim yeriga diqqat qil: tunda qo'riqchilik qilishga mas'ul musulmonlar Qur'on hofizlari bo'lib, ular Allohning Kitobini tinmay tilovat qilishar edi. Boshqa musulmonlar ham tunda uxlamasdan Nabiylar solum alayhi vasallamning hayotlari haqida suhbatlashar, ba'zilar namoz o'qir, qolganlari kamondan o'q uzishni mashq qilardilar.

Ular tunlarini zoe qilishmadi. Natijada Alloh ularga kunduzlarida ulkan zafar berdi. Tunini zoe qilgan, kunduzini ham yo'qotibdi!

Ey do'stim, kechasi turib Allohni zikr qilishdan seni nima to'sadi?!

Bir a'robiddan: «Ey Falonchi, sen qiyomul laylga turasanmi?» deb so'rashdi. U: «Ha», dedi. «Nima qilasan?» deyishganda a'robiddan: «Turaman, hojatga kiraman va yotib qayta uxlayman» degan ekan...

**Tun**, qadrli do'stim, - Alloh taoloning insoniyatga bergan eng buyuk ne'matlaridan biri. U avom uchun rohat, obidlar uchun fursat, muhsinlar uchun g'animat va solihlar uchun fazilatdir. U olimlarning ish vaqti, Qur'on ahlining intiqib kutgani va zohidlarning rag'batidir.

**Tun** - bu dunyoda libos, oxiratda esa nurdir. U oshiq'larga visol, taqvodorlarga chiroq, mazlumlariga dalda, a'molarga ko'z va tafakkur egalariga ko'zgu'dir. Unda Rasululloh solum alayhi vasallamning Robbisi ila uchrashuv baxti va ming oydan yaxshiroq ajrning naqdi bor. Unda Nabiyini ko'rmagan ummatning ul mahbubini ko'rish imkoni bor!

**Tun** - ibodat uchun kalit, tavba uchun esa eshikdir. Unda charchoq o'rnini hordiq, shovqin o'rnini sukunat, riyo o'rnini ixlos egallaydi. Unda o'qiladigan namoz munofiq uchun og'ir, mo'min uchun esa yengildir.

**Tun** - unda namlangan kipriklar uchun guvohlik beruvchi shohid va unda to'kilgan ko'z yoshlarni jannatda artguvchi dastro'moldir. Kunduzgi ibodatlar uchun quvvat ham undan olinadi. Unda so'raguvchi uchun ulkan ijobat va va'da qilingan Buyuk Soat (Qiyomat) bor. Unda Olamlarning Robbi Alloh taolo ila yolg'iz qolish bor. Unda U ila munojot qilish bor!

Odamlarning ko'plari bundan g'aflatdalar...

\*\*\*

### **Dinda chinakam yasha, yuzasida suzib yurma!**

Do'stim, din ijtimoiy tarmoqlarda bir domlaning 1-2 daqiqali ma'ruzasini joylab qo'yish yoki yo'lda ketayotganda yaxtak kiygani esiga tushib qolib, o'zini-o'zi rasmga olish, keyin uni sahifasiga joylab, tagidan ma'nosini o'zi ham tushunmaydigan arabiy so'zlarni yozib qo'yish emas!

Din mashinada baland ovozda Qur'on eshitib ketish ham emas! Din bu - hayot! Unda yashaladi! Haqiqiy ma'noda yashaladi, yuzaki emas!

Din o'ng yuziga urilganda chapini tutib beradigan «qo'y» bo'lishga chaqirmaydi. U erkak-u ayolni birdek hayoga chaqiradi. Robbisiga osiy bo'lish va sunnatlarni tark etishdan hayo qilishga chaqiradi.

O'zimga, so'ngra senga yurish-turishimizni o'nglashni nasihat qilaman! Bugunimiz kechagi kunimiz kabi bir xil bo'lib qolmasin. Yeyish, ichish, uxlash, axlatlarini chiqarish, nasl qoldirish - bular hayvonlarning ham qo'lidan keladigan ishlar. Sen bilan men haromlardan saqlanib, behuda o'yinkulgilardan ibodat tomon yuz buraylikki, Allohning O'zi bizga yetarli vakil bo'lsin!

\*\*\*

## **Yo'qlikka mahkum bo'lgan narsalar uchun xavotirlanma! Zero ular hozirdan yo'q hisobidadir.**

1937-yil Angliya premer-ligasining «Chelsi» va «Charlton» jamoalari o'rtasidagi futbol musobaqasi paytida qattiq tuman tushishi sababli o'yin to'xtatiladi. Ammo «Charlton» jamoasining darvozaboni Sem Bartram o'yin to'xtatilganidan bexabar qolgani uchun 10 daqiqa bo'sh o'yingohdagi darvozani «himoya» qilib turadi...

Do'stim, ba'zan inson yo'q narsadan vahimaga tushadi. Odamlar «sen qo'rqayotgan narsa aslida yo'q», deyishiga qaramay, bunga ishonmaydi. Shunda unga o'sha narsani «yo'qolgan»ligini isbotlash lozim bo'ladi. Shayx Aliy Tantoviy «Suvar va xovaatir»da shunday qissani keltiradilar: «Alloma, tarixchi, shayx Xuzoriy umrining oxirlarida oshqozonida bir ilon bor, degan vahimaga tushib qoldi. Tabiblarga murojaat qilib, hakimlardan bu haqida so'radi. Tabiblar hayo qilib uning gapiga kulishdan o'zlarini zo'rg'a tutib turishar edi. Ular shayxga: «Oshqozonda qurtlar yashashi mumkin, ammo unda ilonlar «yashamaydi», deb aytishdi. Xuzoriy ishonmadi. Oxiri u tibbiyotda mohir, psixalogiyani yaxshi biladigan tabibning oldiga bordi. Tabib shayxning «kasallik» qissasini eshitdida, unga ich suruvchi dori ichirdi va uni hojatxonaga olib kirdi. Tabib hojatxonaga bir ilon tashlab qo'ygan edi. Ilonni ko'rish bilan Shayxning chehrasi yorishib ketdi. Badani tetiklashib, salomatligi yaxshilandi».

Ey do'stim, sen qo'rqayotgan «ilonlar» haqiqiy bo'lgan taqdirda ham hech bir ish Alloh taoloning boshqaruvidan chekkada qolib ketgan emas. Unga bo'lgan ishonching «ilonlar»ni qarshingda «chuvalchanglar»ga aylantiradi.

\*\*\*

## Har gunohning bir badali bor!

Bir tolibi ilm ko'z zinosini qilganda ustoz deydi: «Allohga qasam, mana shu gunoh ta'sirini bir kun albatta ko'rasan!» O'sha talaba aytadi: «Men u ta'sirni yigirma yil kutdim. Kechalarning birida uxladim. Tong otgach, Qur'onni to'liq unutgan holda uyg'ondim». U hofizi Qur'on edi...

Do'stim, har gunoh evaziga bir badal bor. Eng og'ir badal - qalbning muhrlanishi.

Salaflar qalbni inson kaftiga o'xshatadilar. Har gunoh bitta barmoqning yopilishini, har solih amal uning ochilishini ta'minlaydi. Inson xatodan xoli emas. Xato qilsang tavbaga shoshil va ortidan bir yaxshilikni ergashtir. Zero yaxshiliklar yomonliklarni ketkazadi.

Unutmaki, Rahmonning tavba eshiklari hanuz ochiq. Hatto uni taqillatishga hojat yo'q.

Salaflardan birining boshiga musibat tushganda do'sti oldiga kelib: «Robbing eshiklarini taqillatishdan boshqa qanday chorang bor?!» deb nasihat qiladi. U esa: «**Robbim eshiklari yopiqmaski uni taqillatsam...**», deb javob beradi.

Do'stim, sen G'affor tomon eng yaqin eshikdan kir.

Ibn Qayyim rohimahulloh aytgan: «**Kirmoq uchun Allohning eshiklarini taqillatib ularda katta izdihomni topdim. Faqat xorlik eshigidagina oz sonli odamlarni ko'rdim va uning oldida to xtadim. Keyin bildimki, u Allohga eng yaqin eshik ekan**».

Ishonch bilan zorlanib: «Ey Robbim» deki, qalbingdagi qayg'u toshlari qulasin. Axir gunoh tufayli kelgan qayg'udan ham ayanchlisi bor ekanmi?!

\*\*\*

### **Ko'p kitob emas, to'g'ri kitob o'qi!**

Do'stim, alloma Johiz (776-868) hayotiga boq! Uning kitobga bo'lgan muhabbati senikidek jo'n emasdi. U arab tilini sendan yaxshi bilar, kutubxonalarda bir necha kunlab yotib qolar, qo'liga tushgan kitobni o'qir, mutolaadan aslo zerikmasdi. Aqlini bir kitob rom etsa, ko'p narsani unutib yuborar edi. Hatto o'zi haqida shunday degan: «Bir kuni kunyamni unutib qo'ydim. To ahlim eslatmagunicha uch kunchgacha eslolmadim».

U juda ko'p kitoblarni o'qidi. Oxiri o'qimagan kitobi qolmagach, o'zi kitob yoza boshladi va yozgan kitoblari soni 300 dan oshdi. Odamlar uni «Zul-funun» - «Fanlar sohibi» deb atashdi.

Bir kuni yoshi to'qsondan oshgan alloma Johizning kitob o'qish «xumor»i tutib qoladi. Tanasi yarim shol bo'lishig qaramay, kitob javoni oldiga emaklab borib, kitob olishga urinadi. Shu onda qalin mujalladli kitoblar ustiga tushib ketib, o'zi sevgan narsalari ichiga ko'milgan holda jon beradi. Alloh taqsirotlarini avf etsin! Mana shunday katta olim mu'taziliy edi...

Do'stim, qancha o'qish emas, qanday o'qish muhim. To'g'ri yo'lni topish dunyo kitoblarining barini o'qib chiqishda, deb o'ylasang xato qilasan. Qur'onning qayeriga qarama, Alloh taolo insonni «**eshituvchi va ko'ruvchi**» qilib yaratgani haqida xabar qiladi. Ya'ni «eshitish» «ko'rish»dan oldinga qo'yiladi. Chunki payg'ambarlar da'vatini qabul qilishda eng faol a'zo quloq bo'lgan, ko'z emas. Ustozim aytgan edilar: «**Aql haqni botil, botilni esa haq ekaniga dalil topib bera oladi, agar u buzilsa**». Ko'rmasanmi, o'zlarini o'qimishli deb biladigan qanchadan-qancha insonlar Robbilarini inkor etadilar.

Bas, hidoyat va tavfiq faqat Alloh dandir!

\*\*\*

### Hayit tabrigi (1441-yil, 9-zulhijja/2020-yil, 30-iyul)

Allohga hamd, Rasuliga salovatdan so'ng:

Barcha narsada muvozanat zarur. Nabiy sollallohu alayhi vasallam bodringni ho'l xurmo bilan yer edilar<sup>12</sup>. Bodring mijozi sovuq, xurmo mijozi issiq mahsulot. Ikkisi qo'shilganda mo'tadillik yuzaga keladi.

Fizikani yaxshi bilmayman. Ammo magnitdagi S qutbni boshqa magnitning S qutbiga tutilsa, ikki magnit yopishish o'rniga bir-birini itarishini bilaman. Bu yerda muvozanat S qutbning N qutbga tutilishidadir.

Qalb ham xuddi shunday. Unga bodring bilan qo'shib xurmoni ham «yedirib» turish, ichidagi qarama-qarshi qutblarni o zaro «uchrashtirish» lozim.

Bizdan xavf va umid o'rtasida turish talab etiladi. Vaziyat taqozosiga ko'ra goh g'am chekamiz, goh quvonamiz. Sahifalar topshirilgunga qadar umid uzilmaydi, xotirjam ham bo'linmaydi!

Tun ketidan kunni, kun ketidan tunni ergashtirgan Zotga qasamki, biz ikkala oyog'i shikastlangan bemorga o'xshaymiz. Bir emas ikki hassada yurishimizga to'g'ri keladi.

Hoy ikkinchi hassasi tushib qolgan, do'stim! Qurbon hayiti muborak bo'lsin!

\*\*\*

---

<sup>12</sup> Termiziy.

## **Bahs-munozaralardan saqlan!**

Ibrohim Taymiy rohimahulloh aytadi: «**Dinda xusumatlashishdan ehtiyot bo'linglar, chunki u amallarni habata qiladi**».

Bahs olimlar o'rtasida bo'lsa yaxshi. Ammo omi yoshlar bahslashsa, bahslari tahqirlash, janjal, mutaassiblikdan xoli bo'lmaydi. Tarixda yoshligidan bahslashib, keyin olim bo'lgan biror kimsani uchratmaysan (yoshligidanoq olim bo'lganlar bundan mustasno). Ba'zan inson yoshlik qilib qayerda va kimlar bilan o'tirganini unutib qo'yadi.

Alloh Abdulloh ibn Umardan rozi bo'lsin, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytgan topishmoq javobini bilsada, oldida o'tirgan katta sahobiylar topa olmagan uchun o'zini ham bilmaslikka olib o'tirgan edi. Agar birimiz mana shu axloqi bilan o'sha yerda bo'lib qolgandami, to'g'ri deb bilgan javobini savol tugamasdan oldin shartta aytib yuborardi.

Ey otasi Umar bo'lmagan do'stim, Imom Avzo'iyning ushbu gaplari doim qulog'ingda bo'lsin: «**Agar Alloh bir qavmga yomonlikni istasa, ularni tortishuvda turg'azib, amaldan to'sib qo'yadi**».

Ey do'stim, bu tortishuvlarda yutgan gunohkor, yutqazgan xusumatchiga aylanadi. Abdulloh ibn Hasanga: «Nega siz (bir majlisda) o'tirsangiz bahslashmaysiz?» deyilganda, u kishi: «**Yetishsang gunohkor, kamchilikka yo'l qo'ysang, xusumatchi bo'ladiganing ishni nima qilasan!?**» deb javob berganlar.

Senda Muoviya roziyallohu anhu kabi umumiy dushmanga qarshi muxolifi bilan birlasha olishdek erkaklik g'ururi bo'lsin!

\*\*\*



## Vaqtingni nimalar uchun ajratyapsan?

Ey do'stim, inson kallasidagi narsalar miqdoricha gapiradi. Qalbga ko'chganlari bo'yicha esa yashaydi. Bu juda oddiy. Kechasi 00-01 larda futbol ishqibozi ham, namozxon obid ham bedor bo'lib chiqishi mumkin. Ikkisi ham uxlamaydi. Ikkisi ham qalbidagi narsa uchun uyqusidan voz kecha oladi.

Bir inson xotirasi sustligidan, Qur'on yodlashga qiynalayotganidan shikoyat qildi. Uning birinchi gapi yolg'on: xotirasi hech ham sust emas-da! Axir u futbolning shuncha guruhleri-yu o'yinchilari nomlarini, qaysi o'yinda qaysi futbolchi dushman darvozasiga qanday to'p kiritganini qaysi xom kallasida yodlab qolgan?! Endi ikki yelka ustidagi shu dumaloqning Qur'on yodlashga kelib ishlamay qolishi qiziq-ku!

Ibn Qayyim rohimahulloh aytadi: **«Vaqtzni zoe qilish o'limdan ham og'ir. Chunki vaqtzni zoe qilish seni Allohdan va oxirat diyorida uzsa, o'lim dunyo va uning ahlida uzib qo'yadi. Dunyo boshidan oxirigacha (yo'qotilgan) bir soatning qayg'usiga arzimaydi. Endi (yo'qotilgan) butun umrning qayg'usi qanday bo'lsin!?»**

Do'stim, sening bu vaqting barcha narsadan qimmat! Uni ahmoqlar to'dasi bilan yeb bitirma!

Imom Ahmad ibn Hanbal aytadilar: **«Allohga qasam, yoshlikni faqat bir narsaga o'xshataman: qo'limda turib tushib ketib qolgan narsaga».**

Tushirib yuborishingdan avval qo'lingdagi narsadan foydalanib qol!

Kun kelib sen kirgan «g or»ni ham xarsangtosh bosib qolsa, toshni surib tashlaydigan bir amaling bo'lsin!

\*\*\*

## **Yaxshilik sen yaxshi deb bilganingda emas, Alloh yaxshi deb bilganida!**

Quraysh ahli ishiga boq. Mag'lub bo'lgach mardlarcha: «Sen oliyjanob birodar va oliyjanob birodarning o'g'lisan», dedi, oqibatda «**Boraveringlar, sizlar ozodsizlar**», so'zini eshitdi.

Do'stim, ba'zida kishi Abu Sufyondek «sinmagunicha» hidoyat topmaydi.

Ba'zan kishi boshiga tushgan musibat hidoyat yo'lini to'sib qo'ygan pardani yirtib tashlaydi. Jismiga o'rnanishgan dard qalbiga davo bo'ladi.

Tanasi sog'ayib, qalbi xastaligicha qolishning oxiratda ne qiymati bor!?

Bir tanishim aytyapti: «Covid-19 bilan xastalanib kasalxonaga yotdim. Ahvolim juda og'ir edi. Ertalab badantarbiya, muolaja va yaxshi taomlar bilan davolana boshladim. Ayrim Qur'on oyatlarining ma'nolarini o'zbekcha tarjimasida o'qidim. Qarasam, boshqa qiladigan ishim ham yo q. Kasalxonadan chiqqunimcha Qur'onning ma'nolar tarjimasini boshidan oxirigacha o'qib qo'ydim».

Alloh bemor qalblarimizga komil shifo bersin!

Shayx Yosin ibn Yusuf Marokashiy Shom qishloqlaridan birida bir bolakayni uchratib qoldi. Boshqa bolalar u bilan o'ynashni yoqtirmas, uni oralariga qo'shishmas edi. U esa ulardan qochib yig'lab-yig'lab Qur'on o'qir edi. Shayx Marokashiyning qalbida bolaga nisbatan muhabbat paydo bo'ldi. Uni ortidan kuzatib uyigacha bordi. Shayx bolaning otasi uni do'konga ishlash uchun olib borishini, u esa oldi-sotdi qilish o'rniga Qur'on qiroati bilan band bo'lishini ko'rdi. Shunda bolakayning ustози oldiga bordi-da, unga maslahatlar berib shunday dedi: «Ehtimol, bu bola obid va zohidlardan bo'lar».

Haqiqatda, ushbu bolakay ulg'aygach rabboniy olimlardan bo'ldi. Ko'p kitoblar yozdi. 45 yoshida vafot etdi. O'zidan keyingi barcha ulamolar uning ilmi va go'zal axloqiga guvohlik berdi. Kitoblari millionlab musulmonlarning xonadoniga kirib bordi. Dunyoga Imom Navaviy nomi ila tanildi!

Bizga fursatlar eshigini ochib qo'ygan, zararimizga deb o'ylagan ishlarni foydamizga hal qiladigan Zot naqadar Latif va Hakiym!

\*\*\*

## Alloh yo'lida ajralishni ham o'rgan!

Men chekmayman, sen ham. Chunki bu iflos narsa.

Mening gaplashadigan (nomahram) «qizim» yo'q, sening ham. Chunki bu qaytarilgan ish.

Buni eshitib ajablanadiganlarga ajablanaman. «Birorta qiz bilan gaplashmagan yigit ham bo'larkanmi?!» deb, dunyo kishilarining hammasini o'zlariga o'xshatishlari g'ashimga tegadi. Ular uchun chekish, qizlar bilan yurish, o'zaro so'kinib gaplashish, o'z-o'zini sevish, o'zgaga tupurish, o'zlikdan uyalish, umuman, axloqsizlik «normal» holatga aylanib qolgani qalbimni og'ritadi. Xulq bizdan ularga o'tganidek, ulardan bizga ham o'tadi. Har kim o'z o'xshashi do'st bo'ladi.

Molik ibn Diynor rohimahulloh aytadi: **«Xuddi qush turlari kabi insonlarning ham turlari bor: kabutar kabutar bilan, qarg'a-qarg'a bilan, o'rdak o'rdak bilan, sa'va sa'va bilan bo'lganidek har bir inson o'zining o'xshashi bilandir».**

Shuning uchun, Alloh yo'lida do'stlashish bilan bir qatorda Alloh yo'lida ajralishni ham o'rgan!

Ey do'stim, yaqiningda turgan barchani chin do'st deb o'ylasang, bilki, Yusufning akalari ham u bilan birga yonma-yon ulg'ayishgan edi.

Maslahat so'rasang: **«Bu alg'ov-dalg'ov tushdir»<sup>13</sup>**, deb qutulib qoladiganlarni atrofingda to'plashdan ne foyda!?

O'zingdan olis tomonlarni ham kuzatib tur! Ehtimol, yoningdagi yaqiningdan ko'ra yaxshi hamsuhbat bo'luvchi uzoqdagi bir notanishni toparsan.

\*\*\*

---

<sup>13</sup> Yusuf surasi, 44-oyat.

## **Allohning qudrati haqida tafakkurga chorlovchi ma'lumotlar o'qishni kanda qilma!**

Masalan, chumolilar haqida. Barcha ish O'zining boshqaruvi ostida bo'lgan Zot, agar isatasa, insoniyatni birgina chumolilar orqali yo'q qilib yuborishi mumkinligini o'ylab ko'rganmisan?

Yer yuzida o'zining vazniga nisbatan eng kuchli maxluq chumoli hisoblanadi. Vazni tenglashtirilsa, chumolining og'zi hatto timsohning og'zidan ham kuchlidir. Agar chumoli timsohdek katta hajmda bo'lganida, timsohlarning chumolilardan qochib yurganini bir tasavvur qiling.

«The Wonder Of Animals» hujjatli filmi tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, dunyodagi chumolilarning adadi sanab bo'lmas darajada ko'p. Yer yuzidagi har bitta odamga, taxminan, 1.6 million chumoli to'g'ri keladi.

«Garvard» universiteti olimlari agar yer yuzidagi barcha chumolilar bitta joyga to'planib odamlarga hujum qilsa insoniyat ularning ustidan g'alaba qozona olmasligi mumkinligini aytgan.

Abraha ham tepasidan mitti qushlar kelib qo'shinini toshlar bilan yakson qilinishini xayoliga keltirmagan edi.

**«Bas, ularni qurt yeb tashlagan o'simlikka o'xshatib yubormadimi?»<sup>14</sup>**

\*\*\*

---

<sup>14</sup> Fil surasi, 5-oyat.

## **Ilming ziyoda bo'lgur, qadrli do'stim! Arab tilini o'rgan! O'rganishda davom et!**

Bu tilni ixlos ila o'rganish orqali:

- Aqlingni ishlata boshlaysan!

«Biz uni arabiy Qur'on etib nozil qildik. Shoyadki, aql ishlatsangiz».<sup>15</sup>

- Zehningni charxlaysan va mard bo'lasan!

«Arab tilini o'rganinglar. Chunki u aqlni mustahkamlaydi va oliyjanoblikni ziyoda qiladi». (Umar ibn Xattob roziyallohu anhu)

- Diyonatli bo'lasan!

«Arab tilini o'rganinglar. Chunki u diningizdandir». (Umar ibn Xattob roziyallohu anhu)

- Mas'uliyatni his etasan!

Umar ibn Xattob Abu Muso Ash'ariy roziyallohu anhuga xat yozib shunday deganlar: «Ammo ba'd. Sunnatda faqih bo'linglar va arab tilida ham faqih bo'linglar». (Faqih - biror narsani nozik joylarigacha biluvchi)

- Imtiyozga ega bo'lasan!

«Kim bizning masjidimizda arab tilidan boshqasida gapirsa, masjiddan chiqarib yuboriladi». (Imom Molik rohimahulloh)

- Ulkan xazinaning kalitini qo'lga kiritasan!

«Kim nahvni chuqur o'rgansa, boshqa ilmlarga yo'l topadi». (Imom Shofe iy rohimahulloh)

- Usulni tushuna boshlaysan!

«Mendan so'ralgan birorta fiqh masalasi yo'qki, unga nahv qoidalaridan javob bermagan bo'lsam». (Imom Shofe iy rohimahulloh)

- Har tomonlama yuksalasan!

«Bilginki, (arab) tilini o'rganish aqlga, dinga va axloqqa kuchli hamda aniq-ravshan ta'sir ko'rsatadi». (Ibn Taymiyya rohimahulloh)

- Qur'onni anglaysan!

---

<sup>15</sup> Yusuf surasi, 2-oyat.

«Qur'on fazlini faqatgina arablarning gaplarini, lug'at, arab tili va bayon ilmini bilgan hamda arablarning she'rlariga nazar solgan kishigina biladi».

*(Ibn Qayyim rohimahulloh)*

- Xatodan saqlanasan!

«**Bularning hammasi (arab) tilini va sunnatni bilmaslikdir**». (Imom Qurtubiy rohimahullohning tafsirida biror qarashga raddiya bermoqchi bo'lganda eng ko'p aytgan gapi)

- Maqtalasan!

• «**Sarf, nahv va lug'at ilmini bilish mujtahidning shartlaridandir**». *(Ansoriy Hanafiy rohimahulloh)*

- Rohatlanasan!

«**Allohga qasamki, men uchun fors tilida maqtalishimdam ko'ra, arab tilida mazah qilinishim sevimliroq**». *(Abu Rayhon Beruniy rohimahulloh)*

- Shuncha payt nimasiz yashaganingni tushunasan!

«**U (arab tili) tillar orasida barcha kamchiliklardan pok va barcha xunukliklardan oliydir. Arab tili tillarning eng o'rta yo'lli va eng ko'p so'zlisidir**». *(Abu Nasr Farobiy)*

\*\*\*

## Rasululloh muhabbatida yon!

Musulmon dardga chalinsa sabr qiladi. Zero bu jasadiga tushgan o'tkinchi bir dard. Ammo suyuqliki haqorat etilsa, bunga chidab turmaydi. Bunga ko'z yummaydi, yuma olmaydi.

Beshak, Allohning habibi uchun U Zotning O'zidan boshqa yaxshiroq va kuchliroq himoya qiluvchi yo'q!

**«Agar siz unga yordam bermasangiz, batahqiq, Alloh unga yordam berdi».**<sup>16</sup>

Ammo...

Ammo bu iymon va muhabbat masalasiki, unda Umarning qilichi qinidan chiqarilgan! Unda Talhaning qo'li kamon o'qini qaytarib qolgan! Unda Hassonning tilini to'xtatib bo'lmagan!

Do'stim, muhabbat yozuvlarda emas. Muhabbat quruq va'dalarda emas. Muhabbat siyratni o'qib qo'yish ham emas. Muhabbat bir yig'lab, bir ovunish ham emas. Muhabbat - yorga munosib bo'lish uchun intilish va bu yo'lda malomatchining malomatiga tupurish.

\*\*\*

## Odamlar emas, odamlarning Robbi huzurida yaxshi nom bilan tanil!

**«Shahar chetidan bir kishi shoshilib kelib: «Ey qavmim, yuborilgan Payg'ambarlarga ergashing... », dedi».**<sup>17</sup>

Ey do'stim, haq kalimasi uchun Alloh Qiyomatgacha o'qiladigan Kitobida zikr qilgan bu **«bir kishi»**ga qara! U bizga «Dunyoda noming qolishi muhim emas, muhimi Alloh huzurida yaxshilik bilan eslanishingdir», deya ta'lim beryapti go'yo.

\*\*\*

---

<sup>16</sup> Tavba surasi, 40-oyat.

<sup>17</sup> Yasin surasi, 20-oyat.

## **Bo'ydoqlik haqida ko'p gapiraverma!**

Umar roziyallohu anhu: «**Kishini uylanishdan ojizlik yoki fujurgina to'sadi**» deb aytganlar. Boshqa rivoyatda bir kishidan: «Uylandingmi?» deb so'rganlarida u: «Yo'q», deb javob beradi. Shunda hazrati Umar: «**Sen yo ahmoq, yo fojir ekansan**», deb aytadilar.<sup>18</sup>

Mazmunidan «qiynalib ketdim» deb tushuniladigan bo'ydoqlik haqidagi gaplar orqali ojizligini, ahmoqligini yoxud fujurini ommaga namoyish qilishning nima keragi bor?!

*Vahb ibn Munabbih rohimahulloh aytadi: «Bo'ydoqning misoli cho'ldagi daraxt kabidir. Shamol uni unday-bunday qilib aylantiradi».*

Qiynalyapsanmi, uylan!

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu dedilar: «**Agar ajalimdan faqat o'n kun qolib, men u (o'n kun)ning oxiridagi bir kunda o'lishimni bilsam-u, nikohga menda kuch bo'lsa, fitnadan qo'rqib uylangan bo'lar edim**».

*Umar ibn Diynor rohimahulloh dedi: «Ibn Umar Nabiy sollallohu alayhi vasallamning vafotlaridan keyin uylanmaslikni xohladi. Shunda Hafsa: «Ey ukam, uylan! Chunki sendan bir farzand dunyoga kelib vafot etsa, sen uchun farat bo'ladi. Agar qolsa, sen uchun yaxshilikni so'rab duo qiladi»», dedi».*

Bu - ustidan hazil qilib bo'lmaydigan, jamoat ichida chaynalmay olimlar bilan maslahatlashib shart kesiladigan jiddiy masala.

*Ahmad ibn Hanbal rohimahulloh aytadi: «Bo'ydoqlik Islom amridan hech narsa emas. Kim seni uylanmaslikka chaqirsa, seni Islomdan boshqasiga chaqiribdi».*

\*\*\*

---

<sup>18</sup> Abdurrazzoq San'oniy, «Al-Musonnaf», 6/172.



## **Do'stlarga nisbatan e'tiborli bo'!**

Anas ibn Molik roziyallohu anhu aytadilar: **«Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning soch va soqollarida o'n to'rttadan ko'p oq sanamadim».**<sup>19</sup>

Chin muhabbat, do'stim, o'ta kuchli diqqatni talab etadi. Bunda muhib yoriga tegishli boshqalar bilmaydigan ma'lumotlarni biladi.

Masalan, bir insonning ko'zi qanday rangda ekanini uni bir ko'rgan odam ham aytib berishi mumkin. Ammo sochiga tushgan oqlar sonini ularni erinmay sanab chiqqanlarga ayta oladi.

Buning uchun kishida qattiq muhabbat va ziyrak nazar bo'lishi lozim.

Hozir o'zingga «onamning sochlariga oq oralay boshlaganda, o'sha oqlarni sanab chiqqanmidim?!» deb savol berginda, so'ngra Anas ibn Molik gaplarini qayta o'qi:

**«Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning soch va soqollarida o'n to'rttadan ko'p oq sanamadim...»**

Ayni damda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ham sahobalariga xuddi shunday e'tiborli bo'lganlar. U zot ularni qadam tovushlaridan tanir edilar: **«Ey Bilol, bu kecha jannatda kavushing shitirlashini eshitdim».**

Biz ham bir-birimizni qadam tovushidan taniy olamizmi?!

\*\*\*

---

<sup>19</sup> Termiziy.

### Nokaslarga soʻz berma!

Eslaysanmi: bir nokas Zubayr ibn Avvom roziyallohu anhuni xiyonatkorona qatl qilib qilichlarini Ali roziyallohu anhuning oldilariga olib kelgan va qilmishi uchun u kishidan maqtoʻv eshitaman, deb oʻylagan edi.

U qanday xudbin inson boʻldiki, Rasulullohning sahobalaridan birini oʻldirib buning uchun Rasulullohning boshqa bir sahobalaridan maqtoʻv kutsa, hech tushunmayman?!

Taassuf, bizning zamonimizda ham oʻsha kimsadan ilhomlangan kalamushlar anchagina topiladi. Ular oldingda turib musulmon birodaring goʻshtini chaynashadi-da, evaziga sendan olqish kutishadi...

Bundaylarga xuddi hazrati Alidek soʻz berma, gapiraman desa, ogʻziga «ur».

\*\*\*

### Doʻstlikda xiyonat boʻlmaydi.

Ey doʻstim, habibining vafotidan keyin yana 80 yil yashagan Anas ibn Molik roziyallohu anhuning ushbu gaplariga eʼtibor ber:

**«Rasululloh sollallohu alayhi vasallam menga bir sir aytdilar. Hozirgacha uni hech kimga aytganim yoʻq. Hatto onam Ummu Sulaym bu haqida soʻraganida unga aytmaganman».**<sup>20</sup>

Doʻst soʻzda ham, amalda ham, yurishda ham, turishda ham doʻstiga sodiq boʻladi. Uning sirlarini oʻzining sirlaridan koʻra maxfiy saqlaydi.

Doʻstim, sen va oʻzim uchun Allohdan Anas ibn Molikning sadoqatini soʻrayman. Na sakson yillik uzun umriga va na mehribon volidasiga Rasululloh sirini aytib qoʻymagan Anasning sadoqatini.

\*\*\*

---

<sup>20</sup> Buxoriy.

## Do'stim, seni hech chaqmoq urganmi?

- Britaniyalik zobit Valter Summerfordni Birinchi jahon urushi davridagi janglardan birida chaqmoq urib, tanasining bir qismini shol qilib qo'ydi. 1924-yil baliq ovlayotganida yana bir chaqmoq urishi natijasida tanasining o'ng qismi ham falajlanib qoldi. 1930-yilda uchinchi marta chaqmoq urgach, Valter butunlay shol bo'lib qoldi va olamdan ko'z yumdi. Vafotidan to'rt yil o'tib esa qabri yana bir chaqmoq zarbi tufayli vayron bo'ldi... Ey do'stim, seni hech chaqmoq urganmi?!

- 1880-yil Tailand malikasi qayig'i ag'darilib ketishi natijasida suvga g'arq bo'lib halok bo'lgan. Qizig'i, malika cho'kayotganda atrofida odamlar bo'lib uni qutqarishga hech kim urinmagan. Chunki mamlakat qonuniga ko'ra, malikaga teginish qat'iyan ta'qiqlangan (jazosi o'lim!) edi...

Ey do'stim, cho'kayotganingda atrofingda odamlar seni shunchaki tomosha qilib turgan payt bo'lganmi?! Hech cho'kkanmisan o'zi?!

Atrofga boq, fikr yurit va shukr qil!

\*\*\*

## Oriyatli bo'l!

Hazrati Usmon shahid etilishlaridan bir necha soniya oldin bo'lgan voqeani eslaysanmi: Muhammad ibn Abu Bakr g'azab bilan kelib Qur'on o'qiyotgan Usmon roziyallohu anhuning soqollaridan tortdi. Shunda xalifa unga: «**Soqolimni qo'yib yubor, ey birodarimning o'g'li! Allohga qasam, sen ushlab turgan soqolni otang hurmat qilar edi!**» dedilar.

Muhammad otasi Abu Bakr Siddiqning nomini eshitishi bilan soqolni qo'yib yubordi va hazrati Usmonni o'ldirishga kelgan qotillarni hayday boshladi...

Ba'zida oriyat insonni yanglish yo'ldan to'g'ri yo'lga burib qo'yadi.

\*\*\*

### Ramazon tabrigi (1440-yil, 28-sha'bon,/2019, 4-may)

Allohga hamd, Rasuliga salovatdan so'ng:

«Bir a'robiiy Ramazonda to'lin oyga qarab: «O'zing semirib, meni ozdirding-a!» degan ekan.

Ramazon, do'stim, har oy qilishimiz kerak bo'lgan ibodatlarning ro'yxati keltirilgan jonli namunadir:

- barvaqt uyg'onish;
- kam ovqatlanish;
- tungi namozlar;
- Qur'on tilovati;
- ilm majlislari;
- masjidga ko'p qatnash;
- ma'siyatlardan uzoq bo'lish;
- yaxshiliklarga intilish va hokazo.

Biz 11 oy davomida yo'qotib qo'ygan narsalarimizni mana shu oyda qaytadan topamiz.

Qizig'i, bu oy tugashi bilan topganlarimizni yana bitta-bitta yo'qota boshlaymiz. Odatda, topgan narsasini qayta yo'qotgan inson «laqma» deyiladi.

Kel, Ramazon oyini laqma bo'lib emas, topganini qayta yo'qotmaydigan darajada xushyor va ziyrak bo'lib kutib olamiz.

Do'stim, Ramazon muborak!

\*\*\*

## Boamal qori bo'!

Uhudda yetmishta sahoba shahid bo'ldi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bitta qabrga 2-3 ta jasadni qo'yib dafn qilishni buyurdilar. Sahobalar: «Ey Allohning Rasuli, qaysi birini oldin qo'yaylik?» deyishganda u zot sollallohu alayhi vasallam: «**Qur'onni ko'p biladiganini oldin qo'yinglar**»,<sup>21</sup> dedilar...

Qorilar, do'stim, faqatgina dunyo va oxiratda emas, balki qabrlarda ham insonlarning eng peshqadamidirlar. Ammo unutmaki:

- Oxiratda qorilarning ota-onalariga toj kiydirilishi haqidagi hadisda: «**va undagi narsaga amal qilsa**», degan jumla bilan ikrom tojiga ega bo'lish uchun amal shart qilib qo'yilgan<sup>22</sup>;
- Qiyomat kuni birinchi hukm chiqariladigan toifa orasida do'zaxga tashlanadigan riyokor «qori» ham zikr qilingan<sup>23</sup>;
- Rasululloh sollallohu alayhi vasallam amali ila riyo qiluvchi qorilar jahannamdagi hatto qo'riqchi farishtalar ham unga tushishdan har kuni yuz marta Allohdan panoh so'raydigan Jubbul Hazan nomli vodiya tushishini aytganlar<sup>24</sup>;
- Hazrati Alini kuforda ayblab chiqqan o'n ikki ming xavorijning aksariyati qorilar bo'lgan<sup>25</sup>;
- Minglab musulmonlarning qoni to'kilishiga sababchi bo'lgan Hajjoj ham Qur'on bilimdoni edi.

Katta ishlarda yo'l qo'yilgan xatoga beriladigan jazo ham katta va og'ir bo'ladi. Tilidan boshqa a'zolaridan Qur'on ko'rinmaydigan qorida yaxshilik yo'q!

Mas'uliyatni his qil!

\*\*\*

---

<sup>21</sup> Nasoiy.

<sup>22</sup> Termiziy.

<sup>23</sup> Muslim, Termiziy, Nasoiy.

<sup>24</sup> Termiziy.

<sup>25</sup> Muslim.

## **Nafrat egasidan xushyor bo'!**

Hazrati Usmonni qatl qilishdi...

O'shanda Usmon roziyallohu anhu saksondan oshgan mo'minlarning amiri edilar.

O'shanda u kishi qon to'kilishi harom qilingan shahar - Madinai Munavvarada edilar.

O'sha kuni urush harom qilingan zulhijja oyining jumasi edi.

O'shanda u kishi ro'zador edilar.

O'sha kuni u kishining qo'llarida mus'haf bor edi...

U kishi -

- Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ikki nurlariga sohib bo'lgan;
- «**Bugundan boshlab Usmonga nima qilsa ham zarar qilmaydi**», deya nabiylarning so'nggisidan kafolat olgan;
- hayosi bilan hatto farishtalarni uyaltirgan;
- «**Usmon jannatdadir**», degan xushxabarni Rasulullohning o'zlaridan eshitgan ulug' sahobiy edilar.

Allohning Rasuli u kishining qo'llaridan ko'p bora ushlagan edilar.

Qotil esa o'sha qo'llarni hech ikkilanmay chopib tashladi...

Allohning Rasuli uni ko'rib kiyimlarini to'g'irlagan edilar.

Qotil esa...

Ey do'stim, nafrat egasi seni kimligingga qarab o' tirmas ekan!

Har zamon o'zining Umarlari adadicha Abu Lu'lu'olariga ham, Usmonlari adadicha uning qotillariga ham ega ekani ayanchli...

\*\*\*

**Senga: «Umar bo l!» deyman.**

Bir kuni Madinada dasturxon yozilib odamlarga taom ulashildi. Umar bir kishining chap qo'lida ovqatlanayotganini ko'rib: «**Ey Allohning bandasi, o'ng qo'ling bilan ye!**» dedi. Haligi kishi aytdi: «Ey Allohning bandasi, o'ng qo'lim band!» Umar gapini ikki bora qaytardi, u esa bir xil javobni beraverdi. Shunda Umar: «Nima uni band qilibdi?» dedi. U: «Mu'ta kuni yaralanib, harakatlanmay qolgan», dedi. Buni eshitib Umar uning oldiga o'tirdi-da, yig'ladi. Undan: «**Kim seni tahorat qildiradi? Kim kiyimingni yuvadi? Kim boshingni yuvadi? Kim?.. Kim?..**» deb so'rar, har so'rganida ko'zlaridan yosh quyulib oqar edi. Umar uni noo'rin koyigani uchun afsuslandi va unga bitta xizmatkor, bitta tuya hamda taom berishni buyurdi.

*Ey do'stim, Umar bo'l, chunki u odamlarning eng qalbi yumshog'i edi!*

«Ochlik yili» Umar xutba qilayotganida ochlikdan qorni quldiradi. Shunda u qorniga bir urdi-da: «**Hoy qorin, sen quldiraysanmi-quldiramaysanmi to musulmon bolalari to'ymaguncha sen ham to'ymaysan**», dedi.

*Ey do'stim, Umar bo'l, chunki u odamlarning eng fidokori edi!*

Kechasi Umar bir ayolning oylardir urushda yurgan erining firoqida nola chekayotganini eshitib qoldi. Uyiga qaytib qizi Hafsadan: «Ayol eriga qancha vaqt mushtiq bo'ladi?» (ya'ni, qancha vaqt erisiz yashay oladi) deb so'radi. Hafsa onamiz uyalib, boshlarini quyi soldilar. Umar: «Albatta, Alloh haqdan uyalmaydi. Agar xalq ishida nazar solishni istaganim bir ish bo'lmaganida sendan bu haqda so'ramasdim», dedi. Shunda Hafsa onamiz: «To'rt yoki besh yoki olti oy», deb javob berdilar. Shundan so'ng Umar barcha voliydlarga: «**Askarlarni to'rt oydan ortiq ushlab turmanglar!**» deb maktub jo'natdi.

*Ey do'stim, Umar bo'l, chunki u odamlarning eng huquqparvari edi.*

Abdulloh ibn Umar aytadi: «Otamning sahar chog'i: «**Ey Alloh, Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) ummatining halokatini mening qo'limda (ya'ni, boshqaruvim davrida) qilmagin**», deb duo qilayotganlarini eshitdim».

*Ey do'stim, Umar bo'l, chunki u odamlarning eng mas'uliyatlisi edi!*

Abu Bakr Siddiq bemor bo'lgach o'rniga Umarni rahbar etib tayinladi. Shunda Umar: «Umarni voliy qildingiz. Endi Robbingizga (bu haqda) nima deysiz?»

degandi, Abu Bakr Siddiq: «**Ularga ichlaridan eng yaxshisini boshliq qilib tayinladim deyman**», dedi.

*Ey do'stim, Umar bo'l, chunki u odamlarning rahbarlikka eng munosibi edi!*

Umar vafot etar chog'i o'g'li Abdullohga ikki sohibi - Rasululloh sollallohu alayhi vasallam va Abu Bakr Siddiqlarning yoniga dafn qilinish uchun Oisha onamizdan izn so'rab kelishni buyurdi. Oisha onamiz bu joyni o'zlari uchun olib qo'ygan bo'lsalarda, Umarga izn berdilar. Umar buni eshitib: «**Alhamdulillah, men uchun bundan ko'ra muhimroq narsa bo'lmagan**», dedi.

*Ey do'stim, Umar bo'l, chunki u odamlarning Rasulullohga eng muhabbatlisi edi!*

\*\*\*



### ***So'nggi so'z o'rnida***

*Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan ayrilganini «his qilib», mungli tovush chiqargan xoda ishiga doim qoyil qolaman. Oylardir (balki yillar) Nabiyi uning ustida xutba qildi. U bir marta ham muhabbatini izhor qilib ovoz chiqarmadi. So'nggi damda esa chidab tura olmay faryod chekdi... Ey do'stim, amallar xotimasiga ko'radir! Sendan ko'p narsa so'ramayman. Shunchaki, o'zing xayol qilib yuradigan jannat qasrining bir chekkasida meni ham bordek tasavvur qilib qo'ysang bo'lgani... Alloh yo'lida seni yaxshi ko'ruvchi mendan Alloh yo'lida meni yaxshi ko'ruvchi senga!*

*1443-yil, 30-jumodul ula/2022-yil, 4-yanvar*

## Mundarija

Assalomu alaykum va rohmatalloh.....	2
Qadrli do'stim!.....	5
«Albatta, biz Allohnikimiz va albatta, Unga qaytguvchimiz!».....	6
Najotga shoshil!.....	7
Hudhuddek bo'l!.....	8
Qur'onsiz o'tkazgan har kuning sening zararingadir.....	9
Ujbdan ehtiyot bo'l!.....	10
Odamlarning xatolarini muhoka qilma!.....	11
Odamlarning yomon gumonlari seni ranjitmasin!.....	12
Baxtni uzoqlardan qidirma!.....	13
Yaxshiliklar sen o'ylaganingdan ham ko'p.....	14
O'zingda bor umidni boshqalarga ham ulash!.....	15
Hayit tabrigi (1) .....	16
Hovliqma! .....	17
Tuningni zoe qilsang, kunduzingni ham yo'qotasan! .....	18
Dinda chinakam yasha, yuzasida suzib yurma! .....	19
Yo'qlikka mahkum bo'lgan narsalar uchun xavotirlanma! Zero ular hozirdan yo'q hisobidadir. ....	20
Har gunohning bir badali bor.....	21
Ko'p kitob emas, to'g'ri kitob o'qi! .....	22
Hayit tabrigi (2) .....	23
Bahs-munozaralardan saqlan! .....	24
Vaqtingni nimalar uchun ajratyapsan? .....	25
Yaxshilik sen yaxshi deb bilganingda emas, Alloh yaxshi deb bilganida! .....	26
Alloh yo'lida ajralishni ham o'rgan! .....	27

Allohning qudrati haqida tafakkurga chorlovchi ma'lumotlar o'qishni kanda qilma! .....	28
Ilming ziyoda bo'lgur, qadrli do'stim! Arab tilini o'rgan! O'rganishda davom et! .....	29
Rasululloh muhabbatida yon! .....	31
Odamlar emas, odamlarning Robbi huzurida yaxshi nom bilan tanil! .....	31
Bo'ydoqlik haqida ko'p gapiraverma! .....	32
Do'stlarga nisbatan e'tiborli bo'l! .....	33
Nokaslarga so'z berma! .....	34
Do'stlikda xiyonat bo'lmaydi. ....	34
Do'stim, seni hech chaqmoq urganmi? .....	35
Oriyatli bo'l! .....	35
Ramazon tabrigi.....	36
Boamal qori bo'l! .....	37
Nafrat egasidan xushyor bo'l! .....	38
Senga: «Umar bo'l!» deyman. ....	39
So'nggi so'z o'rnida.....	41

